

In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 2, No. 4, pp. 14-19).

7. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG‘ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.
8. Sobirovna, U. M. (2024). PROVIDING INFORMATION ABOUT TEXTILES AND ITS HISTORY IN TECHNOLOGY CLASSES. *World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences*, 1, 28-32.
9. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
10. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

MING URUG‘INING FARG‘ONA VODIYSIGA JOYLASHUVI TARIXI

Qo‘qon Davlat Universiteti Tarix kafedrası o‘qituvchisi Sh.Toshmatov

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi tarixiga oid qator tarixiy manbalarda mintaqada yashagan xalqlarning etnik tarkibi, jumladan ming urug‘i to‘grisidagi ma’lumotlar tahlili hamda minglarning muntaqaga kelib joylashishi, ularning vodiylar aholisiga etnik ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zalar: Minglar, o‘zbek urug‘lari, “Majmuai at- tavorix”, “Tuxfat at- tavorixi xoniy” Dashti Qipchoq, “Oltin beshik”.

Аннотация

Настоящая статья посвящена анализу исторических источников, касающихся этнического состава населения Ферганской долины. Особое внимание уделено изучению рода Минг, истории их расселения в данном регионе, а также их этногенетическому влиянию на местное население.

Ключевые слова: Минги, узбекские роды, “Мажмуаи ат-таварих”, “Тухфат ат-таварихи хони”, Дашти Кипчак, Алтун Бешик.

Annotation

This article is devoted to the analysis of historical sources regarding the ethnic composition of the population of the Fergana Valley. Particular attention is paid to the study of the Ming clan, the history of its settlement in this region, and its ethno-genetic impact on the local population.»

Keywords: Mings; Uzbek clans; “Majmuai at- tavorix”, “Tuxfat at- tavorixi xoniy” Dashti Qipchoq, “Oltin beshik”

Ma’lumki, etnik tariximizni muammolarini o‘rganish bugungi tariximizning dolzarb muammolaridan xisoblanadi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi tarixiga bag‘ishlangan qator manbalar va ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda o‘zbek xalqi etnik tarixida muhim rol o‘ynagan yirik o‘zbek urug‘lariga oid turli xil ma’lumotlarni uchratish mumkin. Xususan, Markaziy Osiyo, jumladan, Farg‘ona vodiysi tarixiga oid qator tarixiy manbalarda mintaqada yashagan xalqlarning etnik tarkibi haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, aynan mazkur ma’lumotlar orasida, garchi qisqa bo‘lsada ming urug‘ining hayoti, etnik xususiyatlari haqida ma’lumotlar ham uchraydi. Biz mazkur ma’lumotlarni chuqur tahlil qilgan holda vodiylar minglari to‘g‘risida ma’lumot bergan tarixiy manbalar haqida, minglarni vodiylarga kelib joylashish davri, bu joyda turg‘un etnik birlik sifatida o‘rnashish xususiyatlari, ularning vodiylarga ko‘chib o‘tgandan keyingi etnik qiyofasidagi ba’zi o‘zgarishlar to‘g‘risida kengroq tushunchaga ega bulishimiz mumkin.

Avvalo shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ming etnik guruhi o‘zbek xalqini shakllanishida faol ishtirok etgan turkiy qabilalardan biri xisoblanadi. Minglar ko‘plab manbalarda zikr qilingan 92 bo‘li o‘zbek urug‘lari tarkibiga kiruvchi asosiy qabilalardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Bunga biz mazkur urug‘larni to‘liq ro‘yxati keltirilgan manbalaridagi ma’lumotlar orqali guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Axsikentiyning XVI asrga oid “Majmuai at- tavorix” asarida 92 o‘zbek urug‘i

qatorida eng avvvval ming urug‘i, so‘ng yuz, qirq, jaloir, saroy, qo‘ng‘irot urug‘lari tilga olinadi.[7] XIX asrda yashagan Mulla Muhammad Avaz Muhammad Attorning “Tuxfat at- tavorixi xoniy” asarida yuz, qirq, o‘ng, o‘ngajit, jaloir, qo‘ng‘irot kabi o‘zbek urug‘lari orasida ming urug‘i to‘risida ma’lumot berilgan. Shuningdek, XX asr boshlarida Buxoroda Sadr Ziyo tomonidan tuzilgan o‘zbek urug‘lari ro‘yhatida ham mang‘it, yuz, qirq, nayman, xitoy, qipchoq, baxrin, burqut urug‘lari bilan birga ming urug‘i nomi ko‘rsatilgan.[1] Toshkent viloyatidan topilgan va tadqiqotchi A.A.Divaev tomonidan nashrga tayyorlangan o‘zbek urug‘lari ro‘yxatida qo‘ng‘irot, ming, juz, qirq, o‘ngut, jaloir urug‘lari nomlari keltirilgan.[6] Ch.Valixonov tomonidan qayd etilgan o‘zbek urug‘lari ro‘yxatida ming qo‘ng‘irot, yuz, qirq, o‘ngachi, jaloir, saroy urug‘ nomlari sanab o‘tilgan.[4] Demak, ushbu ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki minglar 92 o‘zbek urug‘i tarkibidagi asosiy urug‘lardan sanalgan. Minglar etnogenetik jihatdan o‘zbek urug‘laridan qirq, yuz, qipchoqlar bilan ko‘proq bog‘langan deb hisoblash mumkin. Chunki barcha mualliflar deyarli doimo ming urug‘ini birinchi navbatda aynan ushbu urug‘ nomlari bilan tilga oladilar. Boshqa tomondan minglarni joylashuvida ham shu xususiyat ko‘zga tashlanadiki, ular aynan mazkur etnik urug‘lar bilan yaqin xolatda o‘rnashib borganlar. Ular bilan ko‘proq qarindoshlik rishtalarini bog‘laganlar.

Ming etnik guruhini Mavorunnaxrga, jumladan Farg‘ona vodiysi hududiga qachondan boshlab o‘rnasha boshlaganligi to‘g‘risida turli fikrlar mavjud. Akamedik A.Asqarov XIV-XV asrlardayoq Dashti Qipchoqdan Mavorounnaxrga ko‘chmanchi o‘zbeklarning jaloir, orlot, nayman, mang‘it, qo‘ng‘irot, qushchi va boshqa qabilalari tarkibida ming etnik guruhi ham o‘z xonlari yetakchiligida emas, balki o‘z urug‘-aymoqlari nomlari bilan, alohida etnik birliklar tarzida kirib kelganligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, ayrim tadqiqotchilar Dashti Qipchoq o‘zbeklari vodiya ko‘chib kelgunga qadar ham Farg‘ona vodiysiga ming urug‘i va boshqa turkiy, turk-mo‘g‘il qabilalari kelib o‘rnashganligi to‘g‘risida ma’lumot beradilar. Chunonchi, tadqiqotchi S.S.Gubaeva shunday qabilalar tarzida qarluq,

yag‘mo, chigil, ashpar, halach, chog‘roq, qovchin, jaloir, barlos, nayman, xitoy, qirq, churos, qang‘li, baxrin, norin, tog‘oy, dug‘lat, utarchi, arg‘un, baliqchi qabilalari nomi bilan birgalikda ming qabilasi nomini ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotchini ta’kidlashicha, ushbu nomlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qabilalarning katta qismi Farg‘ona vodiysi sharoitida Dashti Qipchoq o‘zbeklari ko‘chib o‘tgunga qadar o‘troqlashib bo‘lgan edi.[5] Buni ba’zi mahalliy rivoyatlar ham bir jihatdan tasdiqlaydi. Shunday rivoyatlardan biri “Oltin beshik” rivoyatidir. Ushbu rivoyatga ko‘ra 1512 yilda Bobur Samarqanddan Farg‘ona orqali Hindistonga ketishi paytida xomilador xotinlaridan birini xizmatkor va ziynatlangan beshik bilan qoldirishga majbur bo‘ladi. Bu hududlar esa ko‘chmanchi o‘zbek urug‘laridan qirq, qipchoq, qirgiz va minglarga tegishli edi. Vaqt o‘tib ushbu xomilador ayol farzand ko‘radi va ming urug‘i ovuliga joylashtirilgan. Bu bolaga “Oltin beshik” deb ism qo‘yiladi va u voyaga yetgach har bir qabiladan bir qizga uylanadi. Uning ming urug‘idan bo‘lgan katta xotini o‘g‘il farzand ko‘radi va unga Tangriyor deb ism qo‘yilgan. Oltin beshik 1545 yilda vafot etadi. U biy unvonida ming qabila sardori bo‘lib yetishadi. Garchi ushbu rivoyat hali tarixiy jihatdan o‘z tasdig‘ini topmagan bo‘lsada, undagi ma’lumotga ko‘ra minglarni vodiya Dashti Qipchoq o‘zbek urug‘lari kelmasidan avval ham o‘troqlashib bo‘lganligini tasvirlanishi biz uchun muhimdir. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki minglar XV-XVI asrlardan avval xam yashab kelgan.

Dashti Qipchoqdan Mavorounnaxrga ko‘manchi o‘zbeklarning ko‘chib o‘tishi keyin ham davom etib, XV asr oxiri - XVI asr boshlarida O‘rta Osiyo hududlariga Dashti Qipchoqdan bir qancha urug‘- qabilalar: arlot, baxrin, burqut, do‘rmon, iyjon, xitoy, qarluq, mojar, qipchoq, qiyot, qo‘ng‘irot, mang‘it, nayman, nukuz, mangut, qushchi, tuman, ming va shu kabi urug‘-qabilalar kirib keldi. Bevosita Farg‘ona vodiysiga esa bu davrda Dashti Qipchoqdan qirq, yuz, ming, qo‘ng‘irot, kenagas, qatog‘on, saroy, tama, mang‘it va boshqa urug‘lar ko‘chib o‘tgan. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mazkur qabilalarni mintaqaga kirib kelishi

bu joydagi aholi etnik tarkibini o‘zgartirib yubora olmadi. Chunki Dashti Qipchoqdan Movarounnaxrga kirib kelgan turk-mo‘g‘il qabilalarini miqdori mahalliy turkiy xalqlardan son jihatidan oz bo‘lib, ularning umumiy soni manbalarda 24-26 qabiladan oshmaganligi ta’kidlanadi.[3] XVI asrda kirib kelgan qabilalarning nufuzi tug‘risida turli fikrlar bo‘lib, ularni soni kamida 500-600 ming kishi bo‘lganligi ta’kidlanadi.[2]

Shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ko‘chib kelgan mazkur urug‘-qabilalarning ko‘pchiligi Mavorounnaxrning tub joy turkiy tilli xalqlari bilan bir xil nomga ega bo‘lgan. Bu esa ushbu xalqlarning etnogenetik yaqinligidan, ularning urug‘doshlari avvalgi davrlarda ham bu joyga ko‘chib o‘tganligidan yana bir bor darak beradi. Shu tufayli, ko‘chib kelgan mazkur etnik birikmalarning ko‘pchiligi o‘zlaridan avvalroq ushbu xududlarga kelib o‘rnashgan qabiladoshlari bilan tez aloqaga kirishadi va o‘troqlashadi.[8]

Vodiy minglarining etnik xususiyatlari to‘g‘risida fikr bildiradigan bo‘lsak, dastlab ular ham Dashti Qipchoqdan kelgan boshqa turkiyo‘y ko‘chmanchi qabilalar singari turkiy tilning qipchoq va o‘g‘iz lahjasida so‘zlashgan deyish mumkin. Movarounnaxr tubjoy turkiyo‘y aholisi esa qarluq-chigil lahjasida so‘zlashganlar. Keyinchalik qipchoq va o‘g‘iz lahjalarida so‘zlashuvchi qabilalar, shu jumladan, minglar ham o‘troq hayotga o‘tganlar va mahalliy tubjoy aholi bilan aralashib, qorishib ketadilar. Natijada ular ham Movarounnaxrdagi qadimiy turkiy qavmlarning kuchli til muhitida qarluq-chigil lahjasida so‘zlashishga o‘tadilar. Ularning qiyofasi ham dastlab Dashti Qipchoq o‘zbeklarining antropologik tipi kabi “janubiy sibir” tipini eslatishi tabiiy edi. Ular O‘rta Osiyo aholisiga qorishib ketishi natijasida mahalliy o‘zbeklar antropologik qiyofasida mo‘g‘ilbashara etnik guruhlar qatlami qalinlashdi. Shunga qaramay ular shakllangan o‘zbek xalqini, jumladan vodiy aholisi etnik tarkibini, qiyofasini o‘zgartirib yubora olmagan. Aksincha ular qiyofasida yevropoid belgilar kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, ming urug‘i o‘zbek xalqi tarkibidagi 92 o‘zbek urug‘ining eng asosiy urug‘laridan biri sanaladi. Ularni Farg‘ona vodiysiga ko‘chib

o‘tishi bir necha asrlar davomida yuz bergan va bu joyda o‘rnashishi davom etgan. Buni turli tarixiy manbalar ham tasdiqlaydi. Ular Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tgandan so‘ng bu joydagi mahalliy aholiga etnogenetik jihatdan yaqinligi tufayli vodiylar aholisiga tez qorishib ketgan. Natijada ularni til lahjasi, qiyofa tuzilishi mahalliy aholi bilan bir xil ko‘rinishga kela boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zR FA Sharqshunoslik instituta qo‘lyozmalar fondi.-Inv. № 2193/ 11. vv. 229 a, 231 a.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.: Университет, 2007. 271-6.
3. Ахмедов Б. Ўзбекларнинг этник тарихини ўрганишда қўлёзма манбаларнинг роли //Тарихдан сабоқлар. Т., 1994. 378-6.
4. Валихонов Ч. Собрание сочинений в 5-ти томах. Т. т.-Алма-Ата, 1961.- С.553.
5. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX века (этнокультурные процессы). Т., 1991.-С. 31-32.
6. Диваев А. А. О происхождении узбеков // - ТВ., № 97, 1900.
7. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен иланий»// Средна Азия в древности и средневековые (история и культура).-М., 1977.-С. 166.
8. Шаниязов К. Некоторые вопросы этнической динамики и этнических связей узбеков в XIV-XVII вв. //Материалы к этнической истории населения Средней Азии. Т., 1986.- С. 88.